



105. Koordinata burchagi

Yondosh mavzu:
xaritalar.


Koordinatalar.



1. Burchak o'lchagich yordamida o'tkir, o'tmas va to'g'ri burchaklarni toping.




2. Xaritadaagi har bir obyektning o'rnini aniqlang. Obyektga yetib borish uchun dastlab gorizontaal yo'nalishda necha qadam, keyin esa vertikal yo'nalishda necha qadam yurish kerakligini toping.



	(X; Y)
A	(7; 4)
B	
C	
D	
E	
K	
M	
N	

Obyektning tekislikda turgan joyini aniq bilish uchun tekislikda ikkita koordinata nuridan iborat koordinata burchagi chiziladi. Ulardan biri gorizontaal, ikkinchisi vertikal yo'nalishni ko'rsatib turadi.




Obyektning turgan joyi ikkita son bilan yoziladi: oldin gorizontaal OX o'qi bo'yicha qadamlar soni, keyin vertikal OY o'qi bo'yicha qadamlar soni ko'rsatiladi.

Bu sonlar juftligi nuqtaning koordinata burchagidagi koordinatalari deb ataladi.



3. Daftaringizga usbu nuqtalarning koordinatalarini yozing.



105. Koordinata burchagi



4. Xaritada bir millimetr real dunyodagi 300 m ga to'g'ri keladi. 2-topshiriqdagi istalgan ikki obyekt orasidagi masofani o'lchab, ular orasidagi real masofani bilib oling.



5. Sodda tenglamalar tuzing va ularni tekshirishlar bilan yeching. Tenglamaning ildizini bilib olgach, savolga javob bering.
- a) Ikki sonning ko'paytmasi 360 ga teng. Agar ulardan biri 90 ga teng bo'lsa, bu ikki sonning ayirmasi nimaga teng?
- b) Ikki sonning bo'linmasi 600 ga teng. Agar ulardan biri 30 bo'lsa, bu ikki sonning yig'indisi nimaga teng?



6. Yuzi 12 cm^2 , perimetri esa 26 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing.



7. Masalani tenglama yordamida yeching. Xaritada x ta shahar va 48 ta qishloq, jami 60 ta aholi punkti belgilangan. Xaritada nechta shahar belgilangan?



8. Bu chizmani daftaringizga ko'chirib chizing. $ABCD$ to'g'ri to'rtburchak uchlari koordinatalarini toping. To'g'ri to'rtburchakning ichida istalgan M va K nuqtalarni belgilab, ularning koordinatalarini toping. $ABCD$ to'g'ri to'rtburchakning yuzini toping.

